

## BAROKKO DAVRI MUSIQA MADANIYATI

*Jumanazarova Sevinch G'ulom qizi*  
*Guliston Davlat Pedagogika instituti*  
*Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti*  
*Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya** . Ushbu maqolamda Barokko davri 16-asr oxiri — 18-asr o'rtalarida . Barokko uslubida qurilgan me'moriy majmualar fazoviy yechimi, mayda me'moriy bezaklarga mo'lligi va yagona g'oyaga bo'ysunishi bilan ajralib turadi. Me'morlar shahar ko'cha va maydonlariga, u yerdagi mavjud qurilishlarga ulug'vorlik berish uchun turli optik va boshqa qonunlarga murojaat qiladilar, teskari perspektiva qonunlar vujudga kelishi yozma manbalar asosida tahlil qilingan

**Kalit so'zlar:** Musiqa, barokko, barokko uslublarsan'at va madaniyat, hayot, inson, marosim.

**Аннотация.** В данной статье период барокко – это конец XVI – середина XVIII века. Архитектурные комплексы, построенные в стиле барокко, отличаются пространственным решением, обилием мелких архитектурных украшений и подчиненностью единой идее. Архитекторы обращаются к различным оптическим и другим законам для прославления городских улиц и площадей, существующих на них зданий, на основе письменных источников анализируется возникновение законов обратной перспективы.

**Ключевые слова:** Музыка, барокко, стили барокко, искусство и культура, быт, человек, ритуал.

**Annotation.** In this article, the Baroque period is the end of the 16th century - the middle of the 18th century. Architectural complexes built in the Baroque style are distinguished by their spatial solution, abundance of small architectural decorations and obedience to a single idea. Architects refer to various optical and other laws to give glory to city streets and squares, existing buildings there, the emergence of reverse perspective laws is analyzed based on written sources.

**words:** Music, baroque, baroque styles, art and culture, life, man, ceremony.

**Barokko** (ital. barocco — ajib, g'alati) — 16-asr oxiri — 18-asr o'rtalarida Yevropa va Amerika san'atidagi asosiy uslublardan biri. Yevropada millat va milliy davlatlar jadal shakllanayotgan davrda Uyg'onish davri badiiy madaniyati va subyektiv his-tuyg'ularni ifodalovchi manyerizm o'rniga vujudga keldi. Aristokratiya va cherkov bilan bog'liq bo'lgan barokko san'ati ularning shon-shuhratini oshirishga hamda targ'ib etishga qaratilgan edi. Barokko san'atiga antifeodal chiqishlar, milliy ozodlik harakatlari o'z ta'sirini ko'rsatib,

unga demokratik isyonkorlik ruhini kiritdi. Dabdabaga moyil bo'lgan barokko dunyoning yaxlitligi, cheksizligi, murakkab va rang-barangligi, doimiy o'zgaruvchanligi haqidagi yangi tasavvurlarni, insonni o'rab turgan muhit va boshqalarga bo'lgan qiziqishlarni aks ettiradi; unga keskinlik, obrazlarning harakatchanligi, his-tuyg'ular kurashining shafqatsizligi, tantana va ulug'vorlikka harakat, mavjud borliq bilan xayoliy orzuni uyg'unlashtirish, san'atlar uyg'unligiga intilishlar xos.

Barokko uslubida qurilgan me'moriy majmualar fazoviy yechimi, mayda me'moriy bezaklarga mo'lligi va yagona g'oyaga bo'ysunishi bilan ajralib turadi. Me'morlar shahar ko'cha va maydonlariga, u yerdagi mavjud qurilishlarga ulug'vorlik berish uchun turli optik va boshqa qonunlarga murojaat qiladilar, teskari perspektiva qonunlaridan foydalanadilar. Tasviriy san'atda diniy, mifologik va majoziy mavzulardagi bezak mujassamotlar, tantanavor dabdabali xashamdor portretlar keng o'rin egallaydi.

Barokko Italiyada rivojlanib Yevropaga keng yoyildi. Keyinroq esa yevropaliklar bosib olgan qit'a va mintaqalarga ham bu san'at ta'siri kirib bordi. Amerika, Osiyo, Avstraliyada barokko usulida yaratilgan asarlarning mavjudligi shundan. O'rta Osiyoda rus istilosidan keyin qurilgan me'morlik majmualarida, jumladan saroy, sobor va monastirlar binolarida shu san'atning ta'siri va belgilari mavjud.

Barokko Italiyada shakllanib rivojlandi. Me'mor va haykaltarosh L. Bernini, me'mor F. Borromini, G. Gvarini, rang-tasvirchi demokratik realizm yo'l boshchisi Karavajo, akademizm yo'l boshchisi aka-uka Karrochilar, devoriy rang-tasvir ustalari J. B. Tyepolo va boshqa shu san'at rivojiga katta hissa qo'shdi. Flandriyada P. P. Rubens, A. van Deyk, Ya. Yordane, F. Snayders ijodida B. to'laqonli va hayot haqiqatiga yaqin holda rivojlansa, Ispaniya, Portugaliya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida mahalliy hayot va an'analar ta'sirida o'ziga xos yo'nalishni shakllanishini ta'minladi. Fransiyada klassitsizm bilan uyg'unlikda o'ziga xos jimjimadorlik kasb etdi. Rossiyada 18-asr 1-yarmida Petr I islohotlari va dvoryan monarxiyasining mustahkamlanib borishi bilan rivojlandi. Peterburg, Moskva shaharlari, shahardan tashqarida yaratilgan shoh va zodagonlarning uy va saroylarida shu davr ruhi o'z ifodasini topdi: Petr I saroyi (Petergof), Sarskoye Selo (Pushkino shahri), Peterburgdagi qator saroy, monastir va soborlar (Qishki saroy, Smolnii monastiri va boshqalar) shular jumlasidan. Me'morlardan V. Rastrelli, D. Uxtomskiy, S. Chevakinskiy va boshqalarning hissasi katta. Tasviriy san'atda dunyoviy mavzular, davlat arboblarning tantanavor, ko'tarinki ruhdagi dabdabali portretlarida o'z ifodasini topdi. K. Rastrelli haykaltaroshlik asarlari, I. Nikitin, A. B. Antropov rang-tasvirlari shular jumlasidan.

Barokko musiqada asosan musiqali teatr turlarida (ayniqsa opera janrida), shuningdek cholgʻu kamer (concert, grosso, sonata) va organ asarlarida namoyon boʻldi. Barokkoning eng yorqin namoyandalari G. Gendel, J. Gabriyeli, O. Freskobaldi, K. Monteverde, D. Bukstexude, I. Bax va boshqa barokko uslubi bilan bir paytda klassitsizm uslubi ham rivoj topdi.

#### Foydalanilgan manbalar:

1. Raximov N.N. Musiqa oʻqitish metodikasi Taqrizchi U.Yu.Yuldoshev, R.N.Ergashev “Metodist nashriyoti”, 2023, 172 b
2. <https://youtube.com/watch?v=npLdYcGI8sQ&feature=share>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqa-tarbiyasining-o-quvchi-yoshlarni-komil-inson-qilib-tarbiyalashdagi-o-rni/viewer>
4. <https://youtube.com/watch?v=1VkWK3PAaLM&feature=share>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Barokko>
6. [file:///C:/Users/User/Downloads/ilm-fan+2203%20\(4\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/ilm-fan+2203%20(4).pdf)
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/yevropa-uyg-onish-davri-va-unda-musiqa-san-atining-rivojlanishi>
8. [https://dzen.ru/a/Ym\\_e5O-x5QDbSybp](https://dzen.ru/a/Ym_e5O-x5QDbSybp)
9. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F\\_%D0%BC%D1%83%D0%B7%D1%8B%D0%BA%D0%B8](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B8%D1%8F_%D0%BC%D1%83%D0%B7%D1%8B%D0%BA%D0%B8)